



**Received:** August 12, 2024  
**Accepted:** September 23, 2024  
**Available online:** September 25, 2024

## **Iroda Kaxarova**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
O'zbekiston davlat jahon tillari univesiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ALOHIDA SO'ZLARNING SINTAKTIK VA DERIVATSION XUSUSIYATLARI**

#### **ANNOTATSIYA**

Ingliz va o'zbek tillari tarixidagi undov, taqlid va modal so'zlar hozirgi holatidan birmuncha farqlanadi. Ular milliy konsept hisoblanadi. Barchasi nominativlik xususiyatiga ega emasligi bilan bir-biriga yaqin tursa ham, grammatik ma'nosi, shakli va vazifasiga ko'ra o'zaro farqlanib turadi. Undov, taqlid va modallarning so'z yasashidagi ishtiroki va tuzilishi ham alohida e'tiborga sazovor masalalardan biridir. Ular yasalmasa-da, yasalishga asos bo'lib keladi. Undov, taqlid va ayrim modal so'zlardan alohida qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlarini yasash imkoniyati mavjudligi bois tilning so'z yasash tizimida ular muayyan darajada o'rin tutadi. Shuning uchun ularning ko'pchiligi nutqda ko'pincha sof holda emas, balki ot, sifat, ayniqsa, fe'l va fe'lning boshqa formalari shakliga aylangan holda uchraydi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida emotiv, taqlid va modal so'zlarni ko'pchilik hodisa sifatida qiyoslab, ularning morfologik, semiotik, stilistik, fonostilistik hamda sintaktik xususiyatlarini pragmatik aspektida ochib berishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari ingliz va o'zbek tillarida alohida so'z turkumlari morfologik xususiyatlarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish; olamning lisoniy manzarasida alohida so'z turkumlarining leksik-semantik va semiotik tuzilishini ochib berish hamda yuzaga keladigan semantik ko'chimlar voqelanishini yoritish hamda sintaktik va derivatsion xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot jarayonida lingvistik tavsiflash, tasniflash, kognitiv-semantik, kontekstual, pragmatik,

## **Iroda Kaxarova**

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: iroda.kaharova@mail.ru  
ORCID iD: 0000-0003-3964-7461

### **SYNTACTIC AND DERIVATIONAL FEATURES OF SPECIAL WORDS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

#### **ABSTRACT**

Emotive, imitative, and modal words in the histories of English and Uzbek languages differ from their contemporary forms due to national conceptualization. Despite lacking nominative features and sharing similarities, these word categories vary in grammatical meaning, form, and function. The involvement and structure of exclamations, imitations, and modals in word formation deserve special attention. These words cannot be directly derived but serve as foundations for creating others. Their ability to facilitate the formation of various word groups places exclamatory, imitative, and certain modal words in a crucial position within the word-formation system. Thus, many of these words often appear in speech as nouns, adjectives, particularly verbs, and other verb forms rather than in their pure form.

This study aims to compare emotive, imitative, and modal words in English and Uzbek, examining their morphological, semiotic, stylistic, phonostylistic, and syntactic features from a pragmatic perspective. The research specifically seeks to analyze the morphological characteristics of these word groups in both languages, identify their lexical-semantic and semiotic structures, elucidate instances of semantic shifts, and examine their syntactic and word-formation features. The methodology includes linguistic description, classification, cognitive-semantic analysis, contextual analysis, pragmatic analysis, and cross-analysis.

This study investigates the lexical-semantic and semiotic composition of distinct word groups

chog'ishtirma tahlil metodlaridan foydalanildi.

Xulosada olamning lisoniy manzarasi bilan bog'liq obyektiv haqiqatni anglashda emotsionallik, modallik, obrazlilik, ekspressivlik, intensivlik kabi ma'nolarni ifodalagan alohida so'z turkumlarining leksik-semantik va semiotik tuzilishi hamda semantik ko'chimlar voqelanishi til – tafakkur – bilish – hissiyot ketma-ketligi asosida ochib berilgan; alohida so'z turkumlarining sintaktik va derivatsion xususiyatlari ingliz tilida so'zlashuv, badiiy, publisistik, o'zbek tilida rasmiy va ilmiy uslubda qo'llanilishining cheklanganligi isbotlangan. Undov, taqlid va modal so'zlarning o'zbek tili leksikasida katta o'rin tutuvchi tarixiy kategoriyalar sifatida paydo bo'la boshlashi jamiyatning anchagina quyi davriga to'g'ri keladi.

**Kalit so'zlar:** metateza, sinkopa, epenteza, geminatsiya, eliziya, kontinuantlar, instantalar, frekventativ taqlid so'zlar.

conveying emotionality, modality, imagery, expressiveness, and intensity, alongside the semantic shifts in understanding objective reality linked to the linguistic landscape of the world. The analysis clarifies the sequence of language, thinking, cognition, and emotion. Additionally, it shows that the syntactic and word-formation features of these word groups are limited in their use across colloquial, artistic, journalistic, official, and scientific registers of the Uzbek language.

**Key words:** metathesis, syncope, epenthesis, gemination, elision, continuants, instants, frequentative imitations.

## KIRISH

Tilda alohida so'zlar sifatida qaraladigan undov, taqlid va modal so'zlarning gap tarkibidagi o'rni yaqqol ko'rinib turadi. Ular gapning boshida, o'rtasida yo oxirida kelishi mumkin. Bunda modal so'zlar gapning qaysi o'rnida kelishidan qat'i nazar kirish so'z vazifasini bajarib, vergul intonatsiyasi bilan ajratiladi.

Undov va modal so'zlar, odatda, gapning boshqa bo'laklari bilan bog'lanmay, o'zi mustaqil gap ham bo'lib keladi. Bu ko'proq dialogik nutqda ko'rinadi. Bunda undov yoki modal so'zlar yakka holda, ya'ni bir o'zi gap bo'lib kela oladi. Modal so'zlar grammatik vazifa bajarib, ba'zan so'zni so'zga yoki gapni gapga bog'lab keladi.

His-hayajon gaplarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi leksik vositalar orasida inson emotsiyalarini ifodalovchi undov so'zlar (emotivlar)larining alohida o'rni bor. Gaplarda intensivlikni namoyon etish uchun undov va modal so'zlar takroridan foydalanish holatlari ko'p kuzatiladi.

Alohida so'zlar lug'aviy (atash) ma'nosiga ega emasligi bois mustaqil so'z turkumlaridan ajratilsa-da, otlashish xususiyati sababli gapda biror-bir sintaktik vazifada qo'llanib keladi. Natijada undov va taqlid so'zlarning har biri, modal so'zlardan esa "bor" va "yo'q" so'zlari gapda bosh yoki ikkinchi darajali bo'lak vazifalarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, har biri kontekstual ma'nolarda qo'llanib keladi.

Undov, taqlid va modal so'zlar semantik, morfologik va sintaktik jihatdan rang-barangdir. Tilda alohida so'zlar sifatida tasniflanadigan undov, taqlid va modal so'zlar gap qurilishida ajralib turadi. Shundan undov va modal so'zlar gapning boshlanishida yo oxirida ko'p ishlatilsa, taqlid so'zlar gap ichida keltiriladi. Ammo ba'zan ularni gap oxirida ham uchratish mumkin.

O'zbek tilida undov, modal, taqlid so'zlarning gapda kelish o'rnini quyidagicha

ko'rsatib o'tish mumkin:

A. Undov so'z gap boshida kelishi: **Oh**, *naqadar go'zal ohang!*

B. Undov so'z gap o'rtasida kelishi: *Bu toy, voy, buncha chiroyli bo'lmasa.*

D. Undov so'z gap oxirida kelishi: *Ishim ijobiy hal bo'ldi, rahmat!*

E. Modal so'z gap boshida kelishi: **Afsus**, *to'yga borolmadim.*

F. Modal so'z gap oxirida kelishi: *Bugun havoning bulutligiga qaraganda yomg'ir yog'adi, shekilli.*

G. Modal so'z gap o'rtasida kelishi: *Men, albatta, xatingizni unga yetkazaman.*

Keltirilgan bu gaplarda undov va modal so'zlar gapning qaysi o'rnida, ya'ni gap boshida, o'rtasida yoki oxirida kelsa-da, vergul bilan ajratib qo'yilgani ko'zga tashlanadi. Bunda ular gap boshida kelsa, undan keyin, o'rtada kelsa, ikki tomonidan, orqada kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi. Chunki ular gapning mazmuni bilan bog'lanmaydi, faqat unga qo'shimcha ma'no qo'shadi, voqelikka hissiy, modal munosabat bildirish uchun xizmat qiladi. Ularning har ikkalasi ham tilda nutqqa badiiy bo'yoq, ifodalilik berish uchun stilistik maqsadda ishlatiladi.

Undov va modal so'zlar, odatda, gapning boshqa bo'laklari bilan bog'lanmay, o'zi mustaqil gap ham bo'lib keladi. Bu ko'proq dialogik nutqda ko'rinadi. Bunda undov yoki modal so'zlar yakka holda, ya'ni bir o'zi gap bo'lib keladi.

Undovning gap bo'lib kelishi:

– Stol ustidagi go'shtni mushuk ilib ketibdi.

– **Voy.**

– Yana keldi o'sha go'rso'xta mushuk. **Pisht.**

Yoki yana:

– Sizga kitob keltirdim.

– Ofarin.

– O'qib maroqli dam oling.

– Qulluq!

Undovlarning gap sifatida ishlatilishi ularning semantik jihatdan guruhlanishi bilan bevosita bog'lanadi. Masalan, tinglovchiga qaratilgan emotsional undovlar bilan buyruq-xitob undovlari fe'l kesimli gaplar kabi o'z undalmasiga ega bo'lishi mumkin. Ammo his-hayajon undovlari, odatda, undalma olmaydi.

### TADQIQOT METODLARI

O'zbek tilidagi undovlarning eng xarakterli sintaktik vazifasi bir tarkibdan iborat bo'lgan ayrim gap sifatida buyruq, istak, his-hayajon kabi tuyg'ularni ifodalashida namoyon bo'ladi. His-hayajon gaplarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi leksik vositalar orasida inson emotsiyalarini ifodalovchi undov so'zlar (emotivlar)larining alohida o'rni bor. Masalan: *Oh my dear, life is so short and love is so transitory* [Maugham, 2015; 267] – *Oh, azizam, umr biram qisqa, muhabbat shunchalar o'tkinchi* [Moem, 2013; 178].

Undov so'zlarning takrori intensivlikni namoyon etadi. Sh.Balli fikricha, intensivlik asosida "miqdor" tushunchasining ma'nodagi darajalanishi yotadi [Balli, 1961; 24]. Masalan, *Oh-oh* yoki *voy, voya* deganda, intensivlik shkalasi yuqori

ko'tarilgani, ma'no va emotsiya yanada kuchaygani, gradatsiyalashgani kuzatiladi. *Yo' so'zi voya ko'rinishini olgach, unda yana qo'shimcha ma'no nozikligi ham kelib chiqqani anglashiladi. A.Ziyayev aytganidek, intensivlik ekspressivlik miqdorining o'lchami, emotsionallikning darajasini ko'rsatish, belgilash uchun xizmat qiladi, ammo u emotsionallik va ekspressivlikning bir qismi bo'lmay, balki ular tomonga undovchi lingvistik omildir [Ziyayev, 2009; 24]. Agar til birliklarining semalari tarkibida emosema bo'lsa, mazkur til birliklarining ekspressivligi emotsional bo'yoqqa ega bo'ladi. Shuning uchun turli tillar lug'at tarkibida (jumladan, ingliz va o'zbek tilida ham) emotsional – ekspressiv leksik qatlam mavjud [Ziyayev, 1998; 28].*

His-hayajon gaplarda intensivlikni namoyon etish uchun modal so'zlar takroridan foydalanish holatlari ham kuzatiladi:

*No, no. I know I'm right. Something terrible will happen to us [Maugham, 2013; 132] – Yo'q, yo'q! Nima deyayotganimni bilib turibman [Moem, 2012; 100].*

Juda kuchli emotsiya bilan aytilgan undov so'zlar sodda undov gapni hosil qilishi mumkin. Bunda ularning oxiriga yo uchta, yo bitta undov belgisi, yo nuqta qo'yilishi mumkin. Nuqta qo'yilsa, u darak gap ekani anglashiladi.

Modal so'zlar gapda ko'proq kirish so'z vazifasida keladi. Ular kirish so'z sifatida vergul intonatsiyasi bilan ajratiladi.

– *Sizda ingliz tili bo'yicha sertifikatningiz bormi?*

– *Yo'q.*

Modal so'zlar grammatik vazifa bajarib, ba'zan so'zni so'zga yoki gapni gapga bog'lab keladi. Bu ko'proq "balki" modal so'zi vositasida amalga oshiriladi. Masalan: Bugun internet ishlamayapti, **balki** to'lovi tugagandir.

Modal so'zlar egalik, kelishik kabi aloqa-munosabat qo'shimchalarini qabul qila olmaydi. Vazifadosh modal so'zlar tarkibida uchraydigan egalik, kelishik qo'shimchalari esa morfemik qismlarga bo'linmaydi (masalan, chama+si, chin+dan, afti+dan kabilarda).

Qizig'i shundaki, alohida so'zlar leksik ma'noga ega emasligi bois mustaqil so'z turkumlaridan ajratiladi, ammo ular otlashish xususiyati sababli gapda biror-bir sintaktik vazifada qo'llanib keladi. Natijada undov va taqlid so'zlarning har biri gapda o'ziga xos **sintaktik vazifada** namoyon bo'ladi. Shuningdek, har biri kontekstual ma'nolarda qo'llanib keladi.

A.S. Dibovskiy undov so'zlarning nominalizatsiya, adverbializatsiya, verbalizatsiya, sintaktik assimilyatsiya xususiyatlariga qodirligini ta'kidlaydi [Dybovskiy, 1983; 29]. Darhaqiqat, aynan nominalizatsiya xususiyatiga ega bo'lgani uchun undov so'zlar gapda ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida kela oladi. Lekin undov so'zlar gap bo'lagi vazifasida ko'proq otlashganda keladi. Masalan:

A. Undov so'zning **ega** vazifasida kelishi: *Onaning **dod-voyi** ko'ngillarni ezib yubordi.*

B. Undov so'zning **kesim** vazifasida kelishi: *Ishi **oh-voh**, boshqasini bilmaydi.*

D. Undov so'zning **aniqlovchi** vazifasida kelishi: *Nihoyat, **ura** tovushi yangradi.*

E. Undov so'zning **to'ldiruvchi** vazifasida kelishi: *Bolaning **alamli voy-voyiga** toqat qilish qiyin edi. Yoki: Uning **oh-vohidan** yurak ezilardi.*

F. Undov soʻzning **hol** vazifasida kelishi: *Uning gapiga tuf deb, qoʻl siltadi.*

G. Undov soʻz otlashmagan holda kesim boʻlishi mumkin: *Doimo ishi oh-voh.*

Undalma bilan kelgan undov soʻzdan keyin vergul qoʻyilmaydi (Ey qiz, yoʻlda ammanni koʻrdim). Boshqa paytda esa qoʻyiladi (Xoʻsh, keling (qoʻyiladi)).

Baʼzan “kel, tur, yoʻqol” kabi buyruq feʼllari undov soʻz vazifasida kelishi kuzatiladi. Bunda ular feʼl emas, undov soʻz hisoblanadi. Masalan, “Qiz itdan qoʻrqib: “Tur, yoʻqol” dedi.

Undov soʻz qatnashgan gaplar undov gapga aylanadi va ularning oxiriga undov belgisi ohanggiga, masalan, kuchli ohang bilan aytilsa, bir emas, bir necha undov belgisi ketma-ket qoʻyiladi.

Demak, emotsional undovlar ot, ravish, feʼl xarakterida boʻlib, shunga koʻra uchga boʻlinadi. Shundan kelib chiqib, baʼzan sintaktik vazifa ham bajaradi. Undov soʻzlar sintaktik vazifasiga koʻra gapda (gap ichida) va gapdan tashqarida ishlatilishi mumkin.

Shuni aytish kerakki, undov soʻzlar sintaktik vazifa bajarishi, xususan, ega, aniqlovchi va toʻldiruvchi vazifasida kelishi uchun otlashishi lozim boʻladi. Undovlar faqatgina otlashgan holatda turlanadi. Boshqa holatda esa ular turlanmasligi bilan qolgan soʻz turkumlaridan farqlanib turadi. Undovlar maxsus grammatik koʻrsatkichlarga ham ega emas. Ular sintaktik qoʻshimchalar (aloqa-munosabat shakllari)ni qabul qilolmasligi hamda leksik (atash) maʼnosining mavjud emasligi sababidan gap tarkibida boshqa boʻlaklar bilan bogʻlana olmaydi va bunday holatda gap boʻlagi sifatida tan olinmaydi.

Taqlid soʻzlar gapning mustaqil boʻlaklari (ega, kesim, aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol) vazifasida keladi. Bu kabi soʻzlarning oʻrinli ishlatilishi bilan gapga taʼsirchan ifodaviylik va badiiylik beriladi. Shu bilan birga, maʼno aniqlashtiriladi.

Taqlid soʻzlar predmetning son jihatdan farqini koʻrsatsa, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: *Toʻyga gʻuj-gʻuj odam toʻplangan edi.*

Agar taqlid soʻzlar predmetning fizik xususiyatini bildirib kelsa, hol vazifasini bajaradi: *Mashina motori bir necha marta pat-pat qildi va soʻng oʻchib qoldi.*

Taqlid soʻzlar otlashish xususiyatiga ega. Shuning uchun taqlid soʻzlar ismlar tarkibiga kiradi. Taqlid soʻzlar otlashganda ega, toʻldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifasida keladi. Masalan:

A. Otlashgan ega: *Nihoyat, multiqlarning paq-puq+i tindi. Suvning shildir-shildir yoqimli eshitilib turardi. Uni odamlarning mish-mish+lar+i bezdirgan edi.*

B. Otlashgan qaratqich aniqlovchi: *Qizni momaqaldiroq gumburi+ning dahshati uzoq vaqt tark etmadi. Musicha gʻuvur-gʻuvurining ovozi tindi.*

D. Otlashgan toʻldiruvchi: *Zumrad boltaning taq-tuqiga quloq solib oʻtiraverdi.*

Ammo taqlid soʻzlar otlashmay turib, sifatlovchi aniqlovchi, hol va kesim vazifalarida kela olishi alohida eʼtiborga molik. Jumladan:

A. Sifatlovchi aniqlovchi boʻlishi: *U haqida duv-duv gap tarqadi.* Demak, taqlid soʻz sifatlovchi aniqlovchi boʻlganda, egaga bogʻlanib keladi.

B. Hol boʻlishi: *Hamma qah-qah kulib yubordi.* Hol boʻlganida feʼl kesimga bogʻlanib, undan oldin keladi. Masalan: *Olmalar duv-duv toʻkildi.*

D. Ot kesim bo‘lishi: *Bozorda odam g‘uj-g‘uj edi*. Demak, taqlid so‘z ot kesim bo‘lganda, gapning oxirida keladi.

“Bor” va “yo‘q” modal so‘zlari otlashadi. Otlashganda gapda yo ega, yo qaratqich aniqlovchi, yo to‘ldiruvchi bo‘lib kelishi kuzatiladi:

A. Ega bo‘lishi: *Birovning bori bor, yo‘g‘i bor*. Bu gapda mavjudlikni bildiruvchi “bor” hamda inkorni, yo‘qlikni bildiruvchi “yo‘q” modal so‘zlari uchinchi shaxs -i egalik qo‘shimchasini olib, otlashgan va ega vazifasini bajarib kelgan bo‘lsa, navbatdagi gapda u hech qanday qo‘shimchasiz ega vazifasida kelgan: **Bor boricha, yo‘q holicha**.

B. Aniqlovchi va to‘ldiruvchi bo‘lishi: *O‘lim borning borini sochar, yo‘qning sirini ochar*.

D. Otlashmay ravish bo‘lishi ham mumkin: *Odamlarni boricha qabul qilaman*.

Ingliz tilida harakat va holatni tasvirlovchi taqlid birliklari mustaqil holda kesim vazifasida qo‘llana olish xususiyatiga ega. Masalan: *Clang it. Clang it. Miles of it obedient reels feeding in huge webs of paper* [Joyce, 2012; 145] – *Sharq-sharaq. Chaqirim-chaqirim qog‘oz gir aylanadi* [Joys, 2012; 168].

Taqlid so‘zlar holat yoki harakat tarziga taqlidni ifodalaydi, chunki ingliz tilida bevosita holatga taqlidni ifodalovchi so‘zlar, asosan, fe‘l yoki gap bo‘lagi sifatida hol vazifasida qo‘llanadi. Bu turdagi so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil taqlid so‘z bo‘lib, alohida gap bo‘lagi sifatida deyarli qo‘llanmaydi. Masalan: *Rtststr! A rattle of pebbles. Wait. Stop!* [Joyce, 2012; 138] – *Qasr-qasr! Shag‘al g‘archiladi. To‘xta* [Joys, 2012; 160].

Flektiv tillar oilasiga kiruvchi ingliz tilida taqlid ifodalovchi birliklar badiiy matnlarda turli vositalar yordamida ifodalanadi. U holat va harakat tarzini anglatadigan har xil taqlid birliklar yordamida ifodalanishi ham mumkin. Fe‘l shaklidagi birliklar semantikasidan taqlid ma‘nosi anglashilib turadi. Tasviriy ma‘nodagi so‘zlar bevosita taqlid so‘zlar ma‘no va mohiyatiga ega bo‘ladi. Misol:

*Even though the sun was shining, there was a lamp here* [Gulom, 2017; 85] – *Ko‘chada allaqachon quyosh chiqqan bo‘lishiga qaramay, bu yerdagi shishasi qoraygan yettinchi chiroq pilpillab yonmoqda* [G‘ulom, 2015; 99].

*Drouet came across the floor with a festival stride, a new pair of tan shoes squeaking audibly at his progress* [Dreiser, 1982; 126] – *Oyog‘iga har bosganda g‘irchillaydigan yangi sariq botinka kiygan Drue mayxonadan bemalol va shoshilmay o‘tib borardi* [Drayzer, 2007; 171].

Ingliz tilida taqlid ifodalar aksar hollarda yakka holda, o‘zbek tilida juftlashgan holda bo‘ladi. O‘zbek tilida *shart-shurt, tars-turs* kabi juft so‘zlar, *lip-lip, g‘uldur-g‘uldur* kabi takror tasvir ifodalar ingliz badiiy adabiyotida uchramaydi, uning o‘rnida ega, kesim, to‘ldiruvchi, hol yoki aniqlovchi shaklida turlicha holatga taqlidni anglatuvchi so‘zlarning tasviriy so‘z sifatida qo‘llaniladi. Misol:

*It opened its eyes very wide, it was trembling and shaking its legs* [Gulom, 2017; 70] – *Ko‘zlari olayib ketgan dag‘-dag‘ titrab, oyoqlarini silkitar edi* [G‘ulom, 2015; 81].

*Carrie had gone sobbing from the door to the window* [Dreiser, 1982; 176] –

Kerri *hiq-hiq qilganicha eshikdan deraza yoniga bordi* [Drayzer, 2007; 234].

*He blinked his eyes blindly a few times, wobbled on his legs, threw up his hands, and staggered back* [Dreiser, 1982; 327] – *U ko ‘zini tez-tez pirpiratib, gandirakladida, qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib, chayqalganicha orqaga chekindi* [Drayzer, 2007; 431].

Turli tovushlar birikuvi negizida voqelik shovqinini aynan aks ettirish uchun jamlangan taqlidiy so‘zlar nutqda turli shaklda qo‘llana oladi. Zero, muayyan shovqinni nomlab keluvchi taqlidiy birliklar gapda turli shakl yasovchi qo‘shimchalar yordamida kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol vazifasini bajara oladi. Ayni shunday polifunksionallik xususiyatlari sabab taqlidiy so‘zlar olamning milliy lisoniy manzarasida alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, taqlidiy ifodalar ma‘lum bir millatning atrof-muhit va undagi hodisalarni qay tarzda anglashi va ushbu voqea-hodisalarni qanday ifodalashiga oid qonuniyatlarni ko‘rsatib beradi.

Anglashilganidek, yuqoridagi ta‘rifga ko‘ra, taqlidiy so‘zlar o‘zining lug‘aviy ma‘nosiga ega va ular gapda mustaqil bo‘lak vazifasini bajarishi, shuningdek, boshqa gap bo‘laklari bilan munosabatga kirishishi ushbu turkum so‘zlarning to‘laqonli mustaqil so‘z turkumi deya tasniflanishiga yetarli asos bo‘la oladi. Yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlar nafaqat o‘zbek tilidagi taqlidiy so‘zlarning, balki jamiki boshqa tillardagi taqlidiy ifodalarning ham ontologik tabiatini namoyon etadi. Taqlidni ifoda etuvchi tovush kompleksining so‘z ekanligini e‘tirof qiladigan fikrlar xorij tilshunosligida ham uchraydi. Tovushga taqlid so‘zlar o‘zlari ifodalayotgan tovushning nomi bo‘lmasdan, ularning bevosita ifodalanishidir. Demak, taqlid so‘zlar bilan ular ifodalayotgan hodisalar o‘rtasida bevosita aloqa mavjud.

Fikrimizcha, taqlidiy ifodalarning grammatik imkoniyatlari ko‘lami, boshqa kategoriyalar bilan munosabatlarga kirisha olish xususiyatlari, semantik xarakteristikalarini inobatga olgan holda, ularni olmoshlar kabi gapda turli sintaktik vazifada qo‘llana oladigan mustaqil so‘zlar sirasiga kiritish mumkin va bunda sof taqlidlarni ismlar sifatida baholash lozim bo‘ladi. Biroq bu kabi yondashuvlar nisbatan ilg‘or ilmiy qarashlari va keng qamrovli farazlari bilan ajralib turuvchi ingliz tilshunosligida ham kuzatilmaydi.

G‘arb tilshunosligida onomatoplar deya nom berilgan taqlidiy ifodalar tilshunoslikda “tabiiy tovushlar, masalan, hayvonlarning qichqiriqlarini shartli ravishda o‘xshatish natijasida paydo bo‘lgan so‘zlar, shuningdek, taqlid yo‘li bilan so‘zlarni hosil qilish” deya ta‘riflangan. Ya‘ni sof taqlidlar, masalan, *g‘ag‘-g‘ag‘, shitir-shitir, taq-tuq* ham, ulardan hosil bo‘luvchi *g‘ag‘illamoq, shitirlamoq* yoki *taqirlamoq* kabi fe‘llar ham umumlashtirilib, onomatoplar sirasiga kiritiladi. Biroq bunday umumlashtirish so‘zning grammatik kategoriyasi va sintaktik vazifasi kabi alomatlarini inkor qilgan holda, uning kelib chiqish etimologik asosda amalga oshirilganligi sababli “onomatop” termini taqlidni alohida lisoniy hodisa sifatida ajratib ko‘rsatuvchi, etimologik belgilari asosida umumlashtiruvchi guruh sifatida ifodalaydi. Ya‘ni onomatoplar – taqlidlarni grammatik emas, semantik xususiyatlariga ko‘ra umumlashtiruvchi atama. Zero, ingliz tilining izohli lug‘atlarida taqlid asosidan hosil bo‘lgan mustaqil so‘zlar o‘zining bevosita morfologik turkumi nomi bilan ataladi.

Shu bilan birga, ingliz tilida taqlidiy soʻzni uning sintaktik vazifasidan kelib chiqqan holda kontekstga mos keluvchi biror feʼl yoki ot bilan almashtirish ham mumkin.

Ingliz va oʻzbek tillarida taqlidiy maʼno gapning sintaktik qurilishi talablariga koʻra, taqlid soʻzlar bilan ham, taqlid asosli feʼllar bilan ham berilishi kuzatiladi. Baʼzan undov va modal soʻzlar oʻz gapdan oʻzlashma gapga aylantirilgan gaplar tarkibidan olib tashlanishi kuzatiladi, ammo ular olib tashlansa, gapning maʼnosi toʻliq anglashilmay qoladi. Umuman aytganda, alohida soʻzlar ogʻzaki soʻzlashuvda, badiiy, qisman publisistik uslubda qoʻllanadi. Rasmiy va ilmiy uslubda ularning qoʻllanilishi cheklangan. Xususan, rasmiy uslubda deyarli qoʻllanmaydi. Sababi, rasmiy doiralarda ehtirosni, modal munosabatni koʻrsatish toʻgʻri kelmaydi.

### NATIJALAR VA MUNOZARA

Ingliz va oʻzbek tilida undov, taqlid, modal soʻzlarning har biri katta bir leksik guruhni tashkil qiladi. Bundan tashqari, hozirgi ingliz va oʻzbek tilidagi koʻpgina ot, sifat, feʼllar taqlid oʻzaklardan yasalgandir. Masalan, oʻzbek tilida: a) undovlardan ot yasalishi: *tuf+don*; b) undovlardan feʼl yasalishi. Bu ikki xil koʻrinishda kechadi. Sodda koʻrinishda: *dod+la*, *uf+la*; murakkab koʻrinishda: *dod solmoq*, *uh tortmoq*, *oh chekmoq*.

Ingliz tilida: a) undovlardan ot yasalishi: *ouch*; b) undovlardan feʼl yasalishi: *to wow*.

Oʻzbek tilida: a) taqlid soʻzlardan ot yasalishi: *shaq+shaq+a*, *qarrs+ak*, *gʻijj+ak*, *puf+ak*, *xurr+ak*, *shar+shar+a*, *dagʻ+dagʻ+a*, *gʻul+gʻul+a*; *qahqah+a*, *tars+aki*, *varr+ak*, *bizbiz+ak*, *shaq+ildoq*, *chiy+ildoq*, *hiq+ichoq*, *husht+ak*;

b) taqlid soʻzlardan feʼl yasalishi: *yarq+ira*, *milt+illa*, *gur+illa*, *chuv+illa*, *guldird+a*; *gʻirch+illa*, *gʻijir+la*, *moʻlt+illa*, *moʻlt+ira*, *taq+illa*, *shov+illa*, *guv+illa*, *gʻoʻldird+a+moq*, *gʻoʻngʻir+la+sh*; *chir+illa*, *chiy+illa*, *shivir+la*, *xir+illa*;

d) taqlid soʻzlardan sifat yasalishi: *guldird+os*, *sharr+os*;

e) taqlid soʻzlardan hol yasalishi: *shart+a*, *gupp+a*, *qars+a*, *gurs+a*, *tars+a*.

A.N. Kononov oʻzbek tilida *tarsil-tarsil*, *vovul-vovul*, *poʻngʻul-poʻngʻul* kabi taqlid soʻzlari *vov*, *poʻng*, *tars* oʻzaklariga *-il* suffiksni qoʻshilishi asosida paydo boʻlganligini taʼkidlaydi. Lekin bu negizlar oʻzbek tilida mustaqil qoʻllanmaydi. Ular yoki *vov-vov*, *tars-tars*, *poʻng* kabi boshlangʻich holatda yoki *vovulla*, *tarsilla*, *poʻngʻir-poʻngʻir*, *poʻngʻilla* kabi formalarda ishlatiladi [Kononov, 1948; 1956].

N.M. Aliboyeva qayd etishicha, taqlidlardan soʻz yasalishida qisqa unlilar harakatning tez amalga oshganini, choʻziq unlilar esa harakatning davomlilikini, juft soʻzlarning bittasi oxiriga (*shart+a*) -a qoʻshimchasi qoʻshilsa, harakat uzviyligi, jadalligi va davomiyligini anglatib keladi [Aliboyeva, 2021].

Jonli predmetlar tovushiga taqlid soʻzlar *etmoq* yoki *demoq* yordamchi feʼllari bilan birika olsa, jonsiz predmetlar tovushiga taqlid soʻzlar, asosan, *etmoq* yordamchi feʼli bilangina birika oladi. Masalan: *Bolalar oʻyinda tinimsiz “zuv” deb yugurishardi. Shar “paq” etib yorildi.*

Ingliz tilida: a) taqlid soʻzlardan ot yasalishi: *clap+ing* – *clapping* (*qarsak*), *whist+le* – *whistle* (*hushtak*); b) taqlid soʻzlardan feʼl yasalishi: *clat+er* – *clatter*

(*jaranglamoq*); d) taqlid soʻzlardan sifat yasalishi: *jerk+y – jerky (shiddatli)*, *jazz+y – jazzy (jonli)*, *husk+y – husky (hirqiroq ovozi)*.

Agar it vovillab bezovta qilsa, unga “akillama” deyiladi. Bu soʻz itning ovozigina taqlidni bildiruvchi “ak-ak” onomatopiga +illa qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasaladi. Bu soʻzni badiiy matnlarda ham uchratdik:

*Akillama it,*  
*Dukkilama it,*  
*Bizning supada*  
*Yumalama, ket.*

Matndagi ak+illa, duk+illa feʼllari taqlid soʻzdan yasalgan. “Ket” soʻzi undov soʻz boʻlib kelgan.

Quyidagi qoʻshiqda chaqaloq yigʻisi tovushiga ishorani bildiruvchi “big” soʻzi (yakka holda), bigʻ-bigʻ (takror koʻrinishda) ishlatilgan hamda “yigʻlamoq” va “bigʻlamoq” soʻzlari oʻzaro sinonim sifatida qoʻllangan:

*Yigʻloq qizginam ursin,*  
*Bigʻloq qizginam ursin.*  
*Yigʻlasa yigʻlaguday,*  
*Bigʻlasa – bigʻlaguday.*  
*Yigʻisida oftob bor,*  
*Bigʻ-bigʻida hayot bor.*

Bigʻ+la=bigʻla deya, feʼl yasalgan. Undan soʻng bigʻ+la+q=bigʻloq tarzida feʼldan sifat hosil qilingan. Bigʻ+i soʻzi -i egalik qoʻshimchasi orqali otlashgan.

Bolalar oʻyin faoliyati bilan aloqador predmetlar (*puf+ak=pufak*, *varr+ak=varrak*, *shaq+ildoq=shaqqildoq* singari narsa otlari) hamda xatti-harakatlar (“gurra tarqalmoq”, “gir aylanmoq”, “chirillab uchmoq” kabi qoʻshma feʼllar) bevosita taqlid soʻzlar ishtirokida yasalgani bilan eʼtiborni tortadi.

Morfologik qatlamda taqliddan yasalgan mustaqil soʻzlar oʻzining grammatik alomatlariga koʻra, mavjud mustaqil soʻz turkumlaridan biriga oidligi eʼtirof etiladi.

Undov, taqlid va modal soʻzlar orasida ayrimlari koʻp maʼnolilik (polisemantiklik) kasb etishi bilan eʼtiborni tortadi. Masalan, tovushga taqlidni bildiruvchi “dub-dub” soʻzi uchta maʼnoda qoʻllanib keladi: a) baraban (cholgʻu asbobi)ning tovushi; b) vertolyot ovozi; d) yurak urishining ovozi. Uning bu maʼnolari, albatta, kontekst orqali anglashiladi. Ularni “taqillash” ovozi umumiy bogʻlab turadi.

Shuningdek, birgina his-hayajon undovi turli maʼnolarni ifodalab kelishi mumkin. Masalan, “voy” undovining maʼnolari:

- a) “Voy qoʻlim” – ogʻriqni tuyish;
- b) “Voy, buncha chiroyli” – hayratlanish;
- d) “Voy bechora, oʻlibdimi!” – achinish;
- e) “Voy, oʻqishga grant asosida kiribman!” – quvonish, zavqlanish.

Hay-hay undovining maʼnolari:

- a) “Hay-hay, buncha maza” – rohatlanish, zavqlanish;
- b) “Hay-hay, kelin, bunday qilmang” – fikridan qaytarish;

d) “Hay-hay, tegma” – buyurish;

e) “Hay-hay, buyoqqa” – ta’kidlash, yo’naltirish.

“O” undovining ma’nolari: 1) hayratlanish; 2) nopisandlik.

O‘zbek tilshunosligida Y. Pinxasov emotsional so‘zlarni his-hayajonni bildiruvchi maxsus so‘zlar va so‘zlovchining predmet, voqea-hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalovchi so‘zlarga bo‘lib tadqiq qilgan [Pinxasov, 1969]. I.Qo‘chqortoyev so‘zlarning bog‘lanishi asosida emotsional-ekspressivlik hosil bo‘lishi [Qo‘chqortoyev, 1977], R.Qo‘ng‘urov subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari [Qo‘ng‘urov, 1980], A.Hojiyev va A.Ahmedov neytral va emotsional-ekspressiv so‘zlar hamda ularning hosil bo‘lish usullari [Hojiyev & Ahmedov, 1981], A.Abdullayev emotsional-ekspressivlik ifodalanish usullari [Abdullayev, 1983; 1987], A.G‘ulomov va M.Asqarova hozirgi o‘zbek adabiy tili [G‘ulomov & Asqarova, 1987], I.Kaxarova ingliz va o‘zbek tillariga oid his-hayajon gaplarning kognitiv-pragmatik talqini [Kaxarova, 2019], Y.Z. Isakova o‘zbek tilining emotsional so‘zlari va uning badiiy-estetik funksiyalari [Isakova, 2021], A.I. Ziyayev ingliz tilida so‘z ma’nolarini kuchaytirishning lingvokognitiv aspekti [Ziyayev, 2009] monografik tadqiq etganlar.

Modal so‘zlar tuzilishiga ko‘ra sodda yoki murakkab turlarga bo‘linadi. Sodda modal so‘zlar so‘z sifatida uchrasa, murakkab modal so‘zlar birikma ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Masalan:

A. Sodda modal so‘zlar: *xullas, dastavval, attang va h.k.*

B. Murakkab modal so‘zlar: *xulosa qilamanki, tan olamanki, uning fikricha* va hokazo. Bular sintaktik jihatdan to‘liq va yaxlit bo‘lib, gapning ajratilmaydigan qismini tashkil qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida undov, taqlid va modal so‘zlar yakka, juft, takror holatlarda uchraydi:

Tillar	Yakka undov	Juft undov	Takror undov
Ingliz tili	a, ah, aha, ai, aie, argh, oh, ahem, alas, amen, aw, awesom, aww, bah, baloney, bingo, boo, boy, bye, brr, bull, cheers, cool, dang, gee	bada-bing, bada-boom, ho-hum, woo-hoo	boo-boo, ha-ha, ho-ho-ho, ah-ah, brum-brum
O‘zbek tili	oh, eh, chuh, allo, barakalla...	oh-voh, dod-voy	oh-oh, eh-eh, voy-voy, churiya-churiya
	Yakka taqlid	Juft taqlid	Takror taqlid
Ingliz tili	bang, tap, gurgle, roar, jingle, flash, hush, tang, clam, clank	dibble-dropp, ding-dong, rat-a-tat, flick-flack, flip-flop, flim-flam	dik-dik, ding-ding, dup-dup, brum-brum, dub-dub, pip-pip, blah-blah
O‘zbek tili	yalt, yaraq, g‘arch, duv, shirt	yalt-yult, g‘ajir-g‘ujir, g‘arch-g‘urch	milt-milt, yalt-yalt, jimi-jimir, vov-vov, chug‘ur-chug‘ur

	<b>Yakka modal</b>	<b>Juft modal</b>	<b>Takror modal</b>
Ingliz tili	possible, probable, certain, sure, likely, unlikely, definite, clear, obvious, necessary, compulsory, obligatory, essential	might could, should oughtta, might would, might should, might can, must can, might have to, must be able to, could might	certainly certainly, sorry sorry, sure sure, maybe maybe
O'zbek tili	balki, afsuski, attang, aslo	afsus-attang	afsus-afsus

Avval aytilganidek, modal soʻzlar tarkibidagi – i/-si (egalik), – dan (chiqish kelishigi qoʻshimchasi) oʻz holida qabul qilinmaydi. Ular modal soʻzlar qatoriga ot yoki son soʻz turkumidan koʻchib oʻtgan va ular tarkibida qotib qolgan hisoblanadi. Masalan, *chin+dan*, *yaxshi+si*, *toʻgʻri+si*, *mazmun+i*, *afti+dan*, *birinchi+dan* va hokazo.

“Bor” va “yoʻq” modal soʻzlari yasaliş uchun asos boʻla oladi. Jumladan:

- ot yasaladi: yoʻq+lik, yoʻq+chilik;
- sifat yasaladi: bor+li, yoʻq+siz, yoʻq+sil;
- feʼl yasaladi: yoʻq+lamoq, yoʻq+ot, yoʻq+ol;
- ravish yasaladi: bor+icha, yoʻgʻ+icha.

Undov soʻzlar yasalmaydi, ammo yasaliş uchun asos boʻladi. Masalan: oh+la – ohlamoq, oh tortmoq, oh chekmoq, voyvoylamoq, uf+lamoq, voy demoq, oh urmoq.

S.V. Voronin taqlidlarni tovushga koʻra uch sinfga ajratadi: instant, kontinuant, frekventativ taqlidlar. Shundan **instant taqlid soʻzlar** ingliz va oʻzbek tillarida akustik tovush xususiyatlarini zarba sifatida qabul qiladigan qisqa ultra shovqin yoki ohangni bildiradi [Voronin, 2004]. Tadqiqotimizda ingliz va oʻzbek tillari materiallari boʻyicha ohang va shovqin lahzalariga misollar tahlil qilindi. Jumladan, *to tap* – taqillatish; *to rap* – teginmoq; *to bubble* – pufaklash, qurillash; *to gaggle* – qurillash; *pip* – baland ovozli radio signali; *clack* – baland ovozda bosish, chertish; *to click* – bosmoq.

Misol: *Hired orchestra tapped significantly upon his music rack with his baton and began the soft curtain-raising strain* [Dreiser, 1982; 138] – *Dirijyor tayoqchasi bilan pyupitrni maʼnodor qilib urib qoʻyuvdi, spektakl uchun atayin kelishib olib kelingan moʻjazgina orkestr debochani boshlab yubordi* [Drayzer, 2007; 185].

*The train clacked through the yards along the lake front, and ran rather slowly to Twent-fourth Street* [Dreiser, 1982; 208] – *Chigal izlarni yorib, gumburlab ketayotgan poezd bir oz koʻl yoqalab yurdi-da, yigirma toʻrtinchi koʻchaga kirdi* [Drayzer, 2007; 276].

*The only indication of his thoughts came in the form of a little clicking sound made by his tongue; the sound some people make when they wish to urge on a horse* [Dreiser, 1982; 58] – *Uning ot haydayotgandek tilini salgina taqillatib qoʻyganligi nimalarnidir oʻylayotganidan darak berardi* [Drayzer, 2007; 83].

Har ikkala tilda instant taqlid soʻzlarda portlovchi undoshlar ustunlik qiladi. Instant taqlid tovushlar ham, portlovchi fonemalar ham bir xil akustik zarbalardan hosil boʻladi. Ochiq unli instant taqlid tovushlar baland va past, yopiq unli tovushlar tinch va baland tovushlarni bildiradi. Shunga qaramay, onomatopik ikki tilning

tipologik izomorfik xususiyatlari juda kuchli va odatda juda aniq bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillarida **kontinuant taqlid so'zlar** zarba bo'lmagan bir lahzali ohang yoki shovqinni bildiradi. Ular ikki qismga bo'linadi: ohang kontinuant taqlid so'zlar va shovqin kontinuant taqlid so'zlar.

Ohang kontinuant taqlid so'zlar zarbasiz ohang, ya'ni sof shakldagi ohangi bildiradi: Misol: *The car ran back more quietly – **hooted**, watched, flung at, but not attacked* [Dreiser, 1982; 329] – *Qaytishda vagon ancha tinchroq ketdi. To'g'ri, goho orqadan tosh **g'izillab**, so'kishlar eshitilib qolsa ham, oshkora xurujlar bo'lmadi* [Drayzer, 2007; 433].

*At that time something fell down and started **moaning**. I heard that* [Gulom, 2017; 36] – *Og'lxona tarafda bir nimaning "**gurs**" etib yerga yiqilib, xirillay boshlagani eshitildi* [G'ulom, 2015; 44].

*As before, the crowd began **hooting**, but now, rather than come near, they threw things* [Dreiser, 1982; 331] – *Oldingi safarda bo'lgandagiday odamlarning mazax qilib **baqirishlari**, hushtaklari eshitilib, zumda hamma yoqdan toshlar yog'ila ketdi* [Drayzer, 2007; 436].

*Having heard this, peasants and women started **to roar*** [Gulom, 2017; 46] – *Mening bu so'zimni eshitgan, atrofni halqa qilib olgan dehqonlar, xotin-xalajlar o'rtasida ola-shovur qiyomatday **nolayi-fig'on ko'tarildi*** [G'ulom, 2015; 53].

Shovqin kontinuant taqlid so'zlar ingliz tilida **-sh, -ss, -zz, -sw** harf birikmalari va o'zbek tilida **-z, -v, -g', -q** harflari bilan ajralib turadi: **to swish** – silkitmoq, qoqmoq; **to flash** – yarqiramoq, chaqnamoq; **to hush** – yupatmoq; **to whiz** – g'izillab o'tib ketmoq; **to sizz**; **to hum** – g'uwillamoq, vizilamoq; **to zoom** – g'ing'illamoq, ming'illamoq.

Misol: *At that time a mountain partridge began **to whistle*** [Gulom, 2017; 107] – *Hoji do'ppili Sulton puchuq takyada boqib yurgan kaklik **g'id-g'idlay** boshladi* [G'ulom, 2015; 127].

*Trains **flashed** by them* [Dreiser, 1982; 6] – *Ro'paradan kelayotgan poezdlar **g'uwillab** o'tardi* [Drayzer, 2007; 13].

*At midnight, when the moon rose to the sky, we started our journey to Kukterak **whistling** and saying "query, qurey"* [Gulom, 2017; 62] – *Yarim kechada oy ko'tarilgandan keyin, oldinma-ketin **hushtak chalishib**, "qurey-qurey"lashib, Ko'kterakka qarab keta boshladik* [G'ulom, 2015; 71].

*He heard the carts go lumbering by upon the neighbouring streets, but they were far off, and only **buzzed** upon his ear. The **hum** of the surrounding city was faint, the clang of an occasional bell was as music* [Dreiser, 1982; 112] – *Olisdagi chekka ko'chalarda aravalalar **taraqa-turuq** kelayotganini eshitar, biroq ulkan shaharning bu **shovqini** qulog'iga arang chalinar, nogahon daranglab qolgan qo'ng'iroqchalar ovozi esa qulog'iga muzikadek eshitalardi* [Drayzer, 2007; 154].

*This young woman was particularly dressy for her station, and wore a jewelled ring or two which **flashed** upon her white fingers as she played* [Dreiser, 1982; 80] – *Qiz binoyidek kiyinar, royal yoniga o'tirganida oppoq barmoqlaridagi uzuklari **yaltirab ketardi*** [Drayzer, 2007; 110].

Ingliz tilida **frekventativ taqlid soʻzlar** juda tez, ketma-ket zarbalarni bildiradi, ularda har bir zarba deyarli alohida seziladi. Zarbalar ketma-ketligini bitta tovushga toʻliq birlashtirib boʻlmaydi. Zarbalarning juda tez oʻzgarishi eshitish qobiliyatini oshiradi. Bunday zarbalar ketma-ketligi dissonans sifatida seziladi, shuning uchun ham frekventativlarni *dissonans onomatoplar* deb ham atash mumkin [Voronin, 2004].

Frekventativlarni tasniflash borasida S.V. Voronin kvaz instant tushunchasini kiritadi: **to track** – kuzatmoq; **to rap** – taqillatmoq, qoqmoq; **to jerk** – turtmoq, itarmoq; **to chirp** – chugʻurlamoq, chiriqlamoq; **to crick** – choʻzmoq, choʻzib kengaytirmoq; **to jar** – tovush chiqarmoq; **to birr** – qattiq shamol esmoq; **to chirr** – chirillamoq, tirillamoq.

*He almost jerked the old subtle light to his eyes* [Dreiser, 1982; 143] – *Shunda koʻzlari ilgarigiday mugʻambirona chaqnadi* [Drayzer, 2007; 192].

*“Look out, Kitty”, called another, “you’ll jar your back hair”* [Dreiser, 1982; 30] – *Ehtiyot boʻl, Kittii! – deb baqirdi boshqa biri. – Boʻlmasa sochingni taxi buzilib qoladi!* [Drayzer, 2007; 46].

Demak, taqlid soʻzlarning bu tarzda tasniflanishi tabiiy tovushning davomiyligiga koʻra amalga oshirilgan. Instantalar tarkibiga soniyaviy tovush (shovqin)lar, kontinuantlar sirasiga davomiy ohangga oʻxshash zarbsiz shovqinlar, frekventativlar tarkibiga davomiy uzuq-yuluq zarb tovushlariga xos taqlidlar kiradi.

Yomon hidga “fu!” deyish – jirkanishning artikulyar imo-ishorasi boʻlib, u fonosemantik ahamiyat kasb etadi. Agar unga yana bir yoki ikkita “f” tovushi qoʻshilsa, pufdash, nafas chiqarish, havo oqimini tashqariga chiqarish holatini ifodalovchi “fuff” onomatopi paydo boʻladi. U “puff” shaklida ham ishlatiladi. Koʻrinadiki, bunda “f” lab-tish sirgʻaluvchi tovush “p” lab-lab portlovchi tovush bilan almashishi kuzatiladi.

Puff /puf/ “pufdash” soʻzi oʻrta ingliz tilida “puffen” / “piffen”ga almashtirilgan.

“Choʻlp” soʻzi boʻsa / oʻpich olish, oʻpish harakatining ovozli ramziy nominasiyaning asosi boʻlgan artikulyar imo-ishorani oʻzida ifodalab keladi. U lablar bilan bogʻliq harakatni bildiradi.

Gʻoʻldir+a+moq, gʻoʻngʻir+la+sh feʼllari lablarni yopib, noaniq fonasiya bilan birga soʻzlash holatini anglatadi va h.k.

Aytish kerakki, XVI asr ingliz adabiy tilida boshlangan vokalizasiya tasviriy leksikaga katta taʼsir koʻrsatgan. Ushbu fonetik jarayon davomida tovushli-tasvirli soʻzlarning semantik-tovush korrelyatsiyasining buzilishi ikki yoʻnalishda kechgan. Masalan, taqlid soʻz tarkibidagi /r/ undoshi /y/ tovushiga oʻzgargan. Natijada onomatop maʼnosi va intrakinesesemizmning tovush ramziy maʼnosining buzilishi ham yuz bergan. Aytaylik, “chir” (baland) va “chiy” (past) tovushga taqlidni bildiruvchi soʻzlar sifatida maʼnosiga koʻra bir-biridan farq qiladi.

Gapirish, soʻzlash harakati bilan bogʻliq gʻoʻngʻirlash / gʻoʻngʻillash soʻzlarida /r/ undoshining /l/ undoshiga oʻzgargani kuzatiladi. Bu ovozli-tasvirli soʻz fonetik tarkibining maʼnoli tarkibiy qismlariga taʼsir qilmaydigan fonetik oʻzgarish boʻlsa-da, tovush sifatiga koʻra farq qiladi.

Taqlid soʻzlarning ikkinchi komponentidagi birinchi tovushi oʻzgarishi mumkin.

Qiy-chuv soʻzida oxirgi /y/ undoshi /v/ undoshiga almashadi.

Juft taqlidning soʻz birinchi boʻgʻini portlovchi yoki sirgʻaluvchi undosh bilan boshlangan boʻlsa, u tovush ikkinchi boʻgʻinda ham portlovchi yoki sirgʻaluvchi tovush bilan almashadi: *baqir-chaqir* (b-ch), *vagʻir-shagʻir* (v-sh), *gʻivir-shivir* (gʻ-sh), *gʻiring-piring* (gʻ-p), *chirt-pirt* (ch-p), *hang-mang* (h-m), *taka-puka* (t-p) kabi.

Ammo onomatopik soʻzlarda faqat undoshlar emas, unlilar ham oʻzgarishi mumkin: *jiringlamoq* / *jaranglamoq*; *shiqirlamoq* / *shaqirlamoq*; *tiqillamoq* / *taqillamoq* kabi.

Maʼlumki, “taqillamoq” lahzaning kanonik tuzilishiga ega boʻlib, “duk-duk” shaklida ham ishlatilishi mumkin. Bunda u ohang davomlilikini bildirib keladi. “Ding-dong” taqlidi esa bir zumda davom etuvchi tovushni anglatadi. Bundan tovushga taqlid soʻzlarning oniy (taqillatish) yoki davomli lahzalar (jiringlash) maʼnosida qoʻllanishi oʻydinlashadi.

Bunday oʻzgarish bir soʻzdagi bir unli bilan bogʻliq emas, ikki unlida ham sodir boʻlishi mumkin: *tiqillamoq* / *taqirlamoq*. Bu taqlid soʻzda i/a unlilari hamda l/r undoshlarining bir-biriga oʻzgargani koʻrinadi. Buning natijasida tovushni bildiruvchi taqlid soʻzlar maʼnosida kuchsizdan kuchliga darajalanish anglashiladi.

Taqlid soʻzlarda koʻpincha **a** unlisining **u** ga oʻtishi uchraydi: *taq* / *tuq*, *tasartusur*. Ammo juft taqlid soʻzlarda bundan boshqa unlilarning almashinishini ham koʻrish mumkin: *i-u* (*qiy-chuv*), *o-u* (*shov-shuv*), *a-o* (daqir-doʻqir), *ya-yu* (*yalt-yult*) va h.k.

Baʼzan tovushga taqliddan hosil boʻlgan soʻzlar tarkibidagi /b/ tovushining /m/ tovushiga oʻzgarishi ingliz va oʻzbek tillariga baravar xos ekani bilan diqqatni tortadi. Masalan: *bomba* / *bomma*. Demak, bunda soʻz tarkibidagi ikkinchi /b/ tovushining talaffuzda yoʻqolishi labial klasterning qisqarishiga olib keladi.

Keltirilgan bu misollar tildagi barcha fonetik oʻzgarishlar tovushli yoki tasvirli soʻzlar uchun fonosemantik ahamiyatga ega emasligini koʻrsatadi.

Yuqorida koʻrsatilganidek, bir xil muntazam fonetik oʻzgarish baʼzi soʻzlarda asl semantik-tovush korrelyatsiyasining yoʻqolishiga olib kelishi namoyon boʻladi, chunki til birligi vazifasini bajaruvchi har qanday tovushli-tasvirli soʻz ham ifoda, ham mazmun jihatdan bosqichma-bosqich oʻzgaradi. Eng muhimi, tovush-tasvirli soʻzlar bir fonemada ikonik oʻzgarish orqali variantlar hosil qilishi mumkin.

Oʻzakdagi unli tovush yoki ikkinchi undoshni oʻzgartirish orqali yangi taqlid soʻzni hosil qilish ingliz va oʻzbek tillarida keng tarqalgan. Buni wibble-wabble, bin-bang, ding-dong kabi soʻzlar misolida dalillash mumkin. **Kakku** /koku:/ “kuku” ikki barobar fonosemantik inertdi.

Ayrim fonosemantik inert soʻzlar etimologik dubllarga ega. Masalan, ingliz tilidagi *alkogol/boise*, *curr/cur*, *flut/flout*, *peep/pipe*, *teeny/mina*, *kuku/koku* soʻzla juft etimologik dublet kani bilan eʼtiborni tortadi.

Qadimgi ingliz tilidagi “hlahhan” – “kulish” (hozirgi zamonda la:f) tabiiy fonetik rivojlanish jarayonida ikkala fonosemantik ahamiyatga ega /h/ni yoʻqotgan. Keyinchalik ingliz tilida *chuckle* va *giggle* soʻzlari kulgini bildiradigan boʻlgan. Ularning ikkalasi ham ikonizatsiya bosqichida va ikkalasi ham hozirgacha stilistik

jihatdan qo‘llanadi. Zamonaviy ingliz tilida, shuningdek, kulgi uchun ko‘plab ifodali interjektiv belgilar mavjud. Ha-ha, he-he, he-he, ho-ho kabilar shular jumlasidandir.

Inglizcha so‘zlarning barcha onomatopeyalari ma’lum bir kanonik modellarga to‘g‘ri kelmaydi, chunki bu modellarning soni va tabiati tilning inventarizatsiyasi va fonotaktik cheklovlari bilan belgilanadi.

Shuni aytish mumkinki, muntazam fonetik o‘zgarishlar umuman tovushli-tasvirli so‘zning asl semantik-tovush korrelyatsiyasini yo‘qotishining yetakchi omili emas. Taqlid so‘zlarni deikonizatsiya qilish tezligi ko‘p jihatdan uning tovush tasvirlarining u yoki bu sinfiga tegishliligiga bog‘liq.

Ta’kidlash joizki, ingliz va o‘zbek tilining tarixi davrida uning so‘z boyligi boshqa tillardan olingan undov, taqlid, modal va tovushli tasvirli lug‘atdan farqli o‘laroq, o‘ziga xos lug‘at bilan to‘ldirilishi doimiy va bir tekis sodir bo‘lgan. Aniqlanishicha, olingan bunday so‘zlar kam emas.

Agar undov so‘zlarning tovush tuzilishiga e’tibor berilsa, ularda /u/ unlisidan boshqa a, o, i, e, o‘ unilari ishlatiladi, chunki /u/ unlisi yakka holda kishilik-ko‘rsatish olmoshi bo‘lib keladi. Tovushga taqlid so‘zlarda esa **a, o, i, u, o‘** unilari ko‘proq ishlatilib, **e** unlisi hamda yotashgan **ye, yo, ya, yu** kabi tovushlar uchramaydi. Undovlarda ko‘rsatilgan unli tovushlar ko‘pincha so‘zning boshida, taqlid so‘zlarda so‘zning o‘rtasida kelib, ma’no har xilligini hosil qiladi. Bunda keng unililar (*a, o*) va o‘rta keng unli (*o*) tovushlari ancha kuchli aytilsa, tor unli (*i*) nisbatan kuchsizroq talaffuz qilinadi.

Undov va taqlid so‘zlarda unilarning almashinishi yangi so‘z hosil qilib, yangi leksema-sinonimlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, undovlarda: oh / ah/ ih / eh / o‘h, uh; taqlid so‘zlarda: chaq-chaq / chiq-chiq; to‘q-to‘q / tiq-tiq; shaq-shaq / shiq-shiq.

Bunda unilarning qattiq yoki yumshoq aytilishi u bilan yonma-yon kelgan undoshning xarakteridan ham kelib chiqadi. Masalan: **i, u, o‘** unli tovushlari **q, g‘, x** undoshlaridan so‘ng yoki avval kelganida **u, a, i** tarzida eshitiladi; **g, k, h** undoshlari bilan yondosh kelganida esa ular **u, i, a** kabi talaffuz qilinadi.

Bir unli va bir undosh tovushlardan tashkil topgan undov va taqlid so‘zlarning boshlanishi hamda oxirida unli tovushlar kela oladi: ay, uh, uf (undovlar); *uv, qu-qu, ak-ak* (taqlid so‘zlar).

Undov va taqlid so‘zlarda tovush davomli ekanligini bildirish uchun ularning tarkibidagi unli tovush cho‘zibroq talaffuz qilinishi mumkin: o-o-o, o‘-o‘-o‘, e-e (undovlarda), mo‘-o‘-o‘, g‘ooq-g‘ooq, ba-a-a (tovushga taqlid so‘zlada).

Taqlid qilinayotgan holatning intensivligini bo‘rttirib ko‘rsatish va unga ekspressiv tus berish maqsadida bir unli orttirilishi mumkin: *sharaqa-shuruq, taqara-tuqur, tarsa-turs* kabi.

Undov va taqlid so‘zlarning ma’nolarini belgilashda undosh tovushlarning o‘rni va roli ham muhimdir. Agar ular sirg‘aluvchi undoshlar bilan tugasa, davomiylikni bildiradi. Masalan, oh, eh, uf, vag‘, chug‘ur-chug‘ur, shar-shar va hokazo kabilarda. Yana ularning oxirgi tovushini xohlagancha cho‘zib talaffuz qilish mumkin.

Oxiri **q, t, p** kabi tovushlar bilan tugagan (*shaq, paq, shat-shut, pat-ppat*,

*po't, do'p* kabi) soʻzlarni talaffuz qilishda ishtirok etuvchi nutq organlarining holati, artikulyatsion xususiyat ovozni yana davom ettirishga yoʻl bermaydi: portlash hosil boʻlib, ovoz kesiladi. Shuning uchun ham tovushga taqlid soʻzlar maʼnosidagi choʻziqlikni koʻrsatishda koʻpincha **r, z, v, gʻ, sh** kabi undoshlarning takrorlanishidan foydalaniladi. Chunki ularni xohlaganchoʻzib talaffuz qilish mumkin.

Taqlid soʻzlarning boshida r tovushidan boshqa barcha undoshlar kela oladi. Bizningcha, eng koʻp v, d, j, z, l, p, t, q, gʻ tovushlari tez-tez uchrab turadi: *viz, vijir-vijir, do'p, dang-dung, jiq, jaraq-juruq, zir, zuv-zuv, lip, likong-likong, po'p, pat-pat, taq, taqir-tuqur, qilt, qult-qult, g'arch, g'arch-g'urch* va b. Tovushga taqlid soʻzlarning oxiri uchun esa koʻproq **s, sh, z, k, gʻ, r, q, p, t, v** kabi undoshlarning kelishi xarakterli ekani aniqlangan: *pis, posh, piz, tuk, pagʻ, par, vaq, po'p, pat, puv* kabi. Bu xususiyat faqat tovushga taqlid soʻzlargagina emas, balki tasvirga taqliddan hosil boʻladigan obrazli soʻzlarning fonetik shakllanishiga ham tegishlidir.

Demak, undov va taqlid soʻzlarning fonetik shakllanishi oʻziga xos boʻlib, ularda ishlatiladigan undosh tovushlarning qattiq, yumshoqligi ham hodisaning maʼnosiga taʼsir koʻsatadi.

Unli va undosh tovushlarning almashtirilishi yoki qattiq-yumshoqligi tovushga taqlid soʻzlardagi kabi obrazli soʻzlar ifodalagan maʼnoga ham taʼsir qiladi. Ularning boshida **b, d, j, p, s, ch, sh, gʻ** undoshlari, oxirida **t, n, r, q** undoshlari keladi. **L, p, k** tovushlari esa har uchala holatda ham keladi. Obrazli soʻzlarning unli tizimida tovushga taqlid soʻzlarda ishlatilmaydigan **ya, yu** grafemalari qoʻllanishi kuzatiladi: **yalt-yult, yaltir-yultur** kabi. Bu esa obrazli soʻzlarning tovushga taqlid soʻzlardan farqini koʻrsatuvchi oʻziga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ularda yana **l, s** tovushlarining koʻproq qoʻllanishi kuzatiladi: **yarq-yurq, lip, lo'q, selk-selk** kabi.

Taqlid soʻzlarning oxirida ikki yoki undan ortiq undosh tovushning ketma-ket yoki qoʻsh kelishi ham koʻzga tashlanadi. Bunda qoʻsh undoshlar koʻpincha **r, l** kabi sirgʻaluvchilar bilan **k, p, s, t, ch, q**, kabi undosh tovushlarning birikishi natijasida hosil boʻladi: *dirk-dirk, shalp-shulp, tars-turs, shart-shurt, qart-qurt, pilch-pilch, chirq-chirq* va b.

Kuzatishlar taqlid soʻzlar tarkibida v, d, j, p, t, z, gʻ, sh, q, r kabi undoshlarning koʻproq, n, m, b, s kabi tovushlarning kamroq uchrashini koʻrsatadi.

Undov va taqlid soʻzlarning boʻgʻin tuzilishi ham bir-biriga yaqinroq. Faqat undov soʻzlar bir unli boʻgʻindan ham iborat: o, a, oʻ, e, i. Bular ochiq boʻgʻinni tashkil qilsa, oh, ay, oʻh, eh, ih kabi undovlar yopiq boʻgʻindan iborat.

Taqlid soʻzlar orasida esa ochiq boʻgʻinlilari juda kam. Ham echki tovushiga, ham oʻkirish holatiga taqlidni bildiruvchi “o’-o’-o’” (bir unli), yigʻi turini bildiruvchi *uv* soʻzi (1 unli va 1 undosh), tez sodir boʻlgan oʻtish harakatini anglatuvchi *lip* soʻzi (bir undosh+bir unli+bir undosh), past yaltirashni ifodalovchi *milt* soʻzi (undosh+unli+undosh+undosh) bir boʻgʻinli shaklda uchraydi.

Ikki boʻgʻinli taqlid soʻzlar: *yalt+ir-yul+tur* (unli + undosh + undosh + unli + undosh), *mild+ir-mild+ir* (undosh + unli + undosh + undosh + unli + undosh), *gʻaj+ir-gʻuj+ur* (undosh + unli + undosh + unli + undosh) va h.k.

Undov va taqlid soʻzlarni talaffuz qilishda intonatsiya (ohang) ham katta rol oʻynaydi. Masalan, “uf” undovini “uf” deb qisqa yoki “ufff” deb choʻzib talaffuz qilish mumkin boʻlgani kabi “tar” yoxud boshqa shu kabi tovushga taqlid soʻzlarni ham “tarr” deya, choʻzib aytilaveradi.

Ayrim taqlid soʻzlarga t, p, q, s kabi qoʻshimchalarni orttirish bilan yangi tipdagi bir boʻgʻinli taqlid soʻzlar hosil boʻlaveradi. Masalan: gur / gurs, pir / pirt, chir / chirt, char / chars, chir/chirq kabi.

-ir, -ur, -(a)ng, -(u)ng qoʻshimchalari ikki boʻgʻinli taqlid soʻzlarni hosil qiladi va oʻzi qoʻshilgan taqlid soʻzning boshlangʻich maʼnosiga qoʻshimcha maʼno yuklaydi. Bunday ikki boʻgʻinli taqlid soʻzlar tovush va harakatning (harakat obrazining) davomlilikini, predmetning birdan ortiqligini bildiradi. Lekin asosiy maʼno unday taqlid soʻzlarning birinchi boʻgʻindalgicha qoladi. Masalan: duk=bir marta//duk+ur=birdan ortiq yoki *taq* bir marta eshitilgan tovushni ifodalasa, *taq-taq* uning birdan ortiq boʻlganini bildiradi.

Taqlid soʻzlar takrorlanganida ular tarkibida yuz bergan tovush oʻzgarishi asosan ikkinchi qismda kuzatiladi. Bu oʻzgarishlar taqlid soʻzlarning maʼnolariga ham taʼsir qiladi. Taqlid soʻzlar tarkibida tovush almashinishi, orttirilishi va tushirib qoldirilishi yoki ularning oʻrinlari oʻzgartirilishi kabi holatlar bilan bogʻliq turli fonetik jarayonlar kuzatiladi. Qizigʻi shundaki, bir xil oʻzakdan iborat boʻlgan taqlid soʻz tarkibida undosh tovushlar oʻrnining almashinib kelishi ham kuzatiladi. “**Metateza**” deb ataladigan bu hodisani qirs-qirs//qisr-qisr (r-s) kabi soʻzlar talaffuzida kuzatish mumkin.

Taqlid soʻzlardan -ra qoʻshimchasi orqali yasalgan feʼllarning oxiridagi -i unlisi tushib qolib, “**eliziya**” hodisasi yuz beadi: hoʻngir-hoʻngir//hoʻngra kabi.

Shuningdek, soʻz oʻrtasida undosh tovush tushishi natijasida **sinkopa** (gʻarchcha//gʻachcha) yoki taqlid soʻzlarning boshlanishi yoki oʻrtasida bir undosh orttirilishi (apil-tapil, uvvos-chuvvos) bilan **epenteza**, taqlid soʻzlardan boshqa soʻz turkumlari yasalganida **geminatsiya** yuz berib, ularga -k, -ak, -ir, -a, -o, -s kabi qoʻshimchalar qoʻshilib, soʻz oʻzagining oxirgi tovushi qabatlanishi (gʻijj+ak) namoyon boʻladi.

B.Delbryuk taʼkidlashicha, “Qulaylik hamma holatlarda fonetik oʻzgarishlarning sababi hisoblanadi va shunday boʻlib qoladi” [Delbrück, 1904].

Taqlid soʻzlarning takrorlanish soni va darajasi taqlid qilinayotgan tovushning takrorlanish soniga bogʻliq boʻlib, ikki, uch va undan ortiq takrorlarni ham oʻz ichiga oladi. Bunda fonetik oʻzgarish boʻlishi, soʻz bir necha marta takrorlanishi mumkin.

Taqlid qilinayotgan tovush bir momentning oʻzida xilma-xil aralash ovozlarning sintezidan iborat boʻlishi mumkin. Chunki hech bir taqlid soʻz oʻzida ifodalangan tovush yoki harakatning obrazli holatlarini toʻligʻicha, aynan aks ettira olmaydi. Shu sababli tovushlarning asli bilan taqlid soʻzlarda ifodalangan shakllari oʻrtasidagi oʻxshashlik absolyut emas, balki nisbiydir.

Taqlid soʻzlar xuddi undov va modal soʻzlar kabi boshqa soʻz turkumlari hisobiga boyimaydi. Ammo ularning oʻzidan maʼlum grammatik shakllar vositasida yangi taqlid soʻz hosil qilish mumkin. Masalan: *shiq-ir* – *shiqir*, *shaq-ir*–*shaqir*, *qaq-*

*ur – qaqur, taq-ir – taqir, shar-aq – sharaq, shar-t – shart, par-t – part, chir-q – chirq, lap-ang – lapang-lapang, lik-ang – likang, gur-ung – guring, shir-t – shirt, shir-q – shirq* va boshqalar.

## XULOSA

Umuman aytganda, undov, taqlid va ayim modal soʻzlardan alohida qoʻshimchalar yordamida boshqa soʻz turkumlarini yasash imkoniyati mavjudligi bois tilning soʻz yasash tizimida ular maʼlum oʻrin tutadi. Shuning uchun ularning koʻpchiligi nutqda koʻpincha sof holda emas, balki ot, sifat, ayniqsa, feʼl va feʼlning boshqa formalari shakliga aylangan holda uchraydi. Taqlid soʻzlarning sintaktik vazifasi ham undovlarga nisbatan ancha kengdir. Shuningdek, taqlid soʻzlardan ot, feʼl va boshqa turkum soʻzlari yasalishi undovlardan yasalishga qaraganda ancha mahsuldor.

Alohida soʻzlarning uslubiy qoʻllanishi chegaralangan. Ular koʻproq ogʻzaki soʻzlashuvda, badiiy, qisman publitsistik uslubda qoʻllanadi. Rasmiy va ilmiy uslubda ularning qoʻllanilishi cheklangan. Undov, taqlid va modal soʻzlar oʻzbek tili leksikasida katta oʻrin tutuvchi tarixiy kategoriyalar boʻlib, ularning paydo boʻla boshlashi jamiyatning anchagina quyi davriga toʻgʻri keladi. Bu esa ularning maʼnosidagi siljishlar, sinonimik variantlarining paydo boʻlishi hamda oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirgan neologik undov, taqlid va modal soʻzlar hisobiga boʻladi. Garchi lisoniy universalialar deb atashga loyiq boʻlgan undov, taqlid va modal soʻzlar nutqda har bir millatning mentalitetidagi oʻziga xoslikdan, tilining fonetik qurilishidan kelib chiqib ifodalanishi bois individuallik kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, A. (1983). *Oʻzbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
2. Abdullayev, A. (1987). *Oʻzbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
3. Aliboyeva, N.M. (2021). Oʻzbek va ingliz tillarida taqlid soʻzlarning qiyosiy tadqiqi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Andijon: Andijon davlat universiteti.
4. Balli, Sh. (1961). *Frantsuzskaya stilistika*. Moskva: Izdatelʼstvo inostrannoy literatury.
5. Delbrück, B. (1904). *Einleitung in das studium der indogermanischen sprachen*. Deutschland: Breitkopf & Härtel.
6. Drayzer, T. (2007). *Baxtiqaro Kerri* (E.Nosirov (Tarj.)). Toshkent: “Sharq” nashriyoti.
7. Dreiser, Th. (1982). *Sister Carrie*. USA: Bantam Books.
8. Dybovskiy, A.S. (1983). *Universalʼnyye svoystva mezhdometiy i ikh lingvisticheskoye opisaniye*. Vladivostok: Izdatelʼstvo Dalʼnevostochnogo universiteta.
9. Gulom, G. (2017). *A naughty boy* (I.M. Tukhtasinov & U.R. Yoldoshev (Transls.)). Tashkent: Publishing House of ‘Yangi asr avlodi’.
10. Hojiyev, A., & Ahmedov, A. (1981). *Oʻzbek tili leksikologiyasi*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
11. Isakova, Y.Z. (2021). Oʻzbek tilining emotsional soʻzlari va uning badiiy-estetik funksiyalari. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Namangan: Namangan davlat universiteti.
12. Joyce, J. (2012). *Ulysses*. New York: Vintage.
13. Joys, J. (2012). *Uliss sarguzashtlari* (I.Gʻafurov (Tarj.)). Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti.
14. Kaxarova, I. (2019). Ingliz va oʻzbek tillaridagi his-hayajon gaplarning kognitiv-pragmatik talqini (Somerset Moemning asarlari misolida). *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent:

- Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.
15. Kononov, A.N. (1948). *Grammatika uzbekskogo yazyka*. Tashkent: Gosudarstvennoye Izdatel'stvo UzSSR.
  16. Kononov, A.N. (1956). *Grammatika sovremennogo turetskogo literaturnogo yazyka*. Moskva: Izdatel'stvo Akademii Nauk SSSR.
  17. Maugham, W.S. (2013). *The moon and sixpence*. Sankt-Peterburg: Karo.
  18. Maugham, W.S. (2015). *Theatre*. Sankt-Peterburg: Karo.
  19. Moem, S. (2012). *Oy va sariq chaqa* (R.Inog'omov (Tarj.)). Toshkent: Davr Press.
  20. Moem, S. (2013). *O'tkinchi ehtiros* (G.Muhammadjon (Tarj.)). Toshkent: Dizayn Press.
  21. Moem, S. (2014). *Yomg'ir* (A.Otaboev (Tarj.)). Toshkent: Akademyashr.
  22. Moem, S. (2018). *Ajal tahqibi* (M.Omon (Tarj.)). Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
  23. Moem, S. (2018). *Omadi chopgan musavvir* (M.Omon (Tarj.)). Toshkent: "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti.
  24. Pinxasov, Ya. (1969). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
  25. Qo'chqortoyev, I. (1977). *So'z ma'nosi va uning valentligi*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
  26. Qo'ng'urov, R. (1980). *Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
  27. Voronin, S.V. (2004). *Angliyskiye onomatopy: Fonosemanticheskaya klassifikatsiya* (2-ye izd.). Sankt-Peterburg: Gelikon Plyus.
  28. Ziyayev, A.I. (2009). Ingliz tilida so'z ma'nolarini kuchaytirishning lingvokognitiv aspekti. *Filol. fan. nomz. diss.* Samarqand: Samarqand davlat chet tillari instituti.
  29. G'ulom, G'. (2015). *Shum bola*. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
  30. G'ulomov, A., & Asqarova, M. (1987). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.

## REFERENCES

1. Abdullayev, A. (1983). *Expression of expressiveness in the Uzbek language*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
2. Abdullayev, A. (1987). *A syntactic method of expressiveness in the Uzbek language*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
3. Aliboyeva, N.M. (2021). Comparative study of imitation words in Uzbek and English languages. *PhD thes. philol. scien.* Andijan: Andijan State University.
4. Bally, Sh. (1961). *French stylistics*. Moscow: Publishing House of 'Foreign Literature'.
5. Delbrück, B. (1904). *Introduction to the study of the Indo-European languages*. Germany: Breitkopf & Härtel Publisher.
6. Dreiser, Th. (1982). *Sister Carrie*. USA: Bantam Books.
7. Dreiser, Th. (2007). *Sister Carrie* (E.Nasirov (Transl.)). Tashkent: Publishing House of 'East'.
8. Dybovsky, A.S. (1983). *Universal properties of interjections and their linguistic description*. Vladivostok: Far Eastern University Publishing House.
9. Gulom, G. (2015). *A naughty boy*. Tashkent: Publishing House of 'New Age Generation'.
10. Gulom, G. (2017). *A naughty boy* (I.M. Tukhtasinov & U.R. Yoldoshev (Transl.)). Tashkent: Publishing House of 'A New Generation'.
11. Gulomov, A., & Askarova, M. (1987). *Modern Uzbek literary language*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
12. Hajiyev, A., & Akhmedov, A. (1981). *Lexicology of the Uzbek language*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
13. Isakova, Y.Z. (2021). Emotional words of the Uzbek language and their artistic and aesthetic functions. *PhD thes. philol. scien.* Namangan: Namangan State University.
14. Joyce, J. (2012). *Adventures of Ulysses* (I.Gafurov (Transl.)). Tashkent: Publishing House of 'Uzbekistan'.
15. Joyce, J. (2012). *Ulysses*. New York: Vintage.
16. Kakharova, I. (2019). Cognitive-pragmatic analysis of emotional sentences in the English

- and Uzbek languages (in the example of of Somerset Maugham). *PhD thes. philol. scien.* Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies.
17. Kochkortoyev, I. (1977). *The meaning of the word and its valence.* Tashkent: Publishing House of 'Science'.
  18. Kongurov, R. (1980). *Semantic and stylistic features of subjective assessment forms.* Tashkent: Publishing House of 'Science'.
  19. Kononov, A.N. (1948). *Grammar of the Uzbek language.* Tashkent: State Publishing House of the UzSSR.
  20. Kononov, A.N. (1956). *Grammar of the modern Turkish literary language.* Moscow: Publishing House of the USSR Academy of Sciences.
  21. Maugham, S. (2012). *The moon and sixpence* (R.Inogamov (Transl.)). Tashkent: Davr Press.
  22. Maugham, S. (2013). *Transient passion* (G.Muhammadjon (Transl.)). Tashkent: Design Press.
  23. Maugham, S. (2014). *Rain* (A.Otaboev (Transl.)). Tashkent: Akademnashr.
  24. Maugham, S. (2018). *A lucky artist* (M.Omon (Transl.)). Tashkent: Publishing House of 'Sparks of Literature'.
  25. Maugham, S. (2018). *Death stalking* (M.Omon (Transl.)). Tashkent: Publishing House of 'New Age Generation'.
  26. Maugham, W.S. (2013). *The moon and sixpence.* Saint Petersburg: Karo.
  27. Maugham, W.S. (2015). *Theatre.* Saint Petersburg: Karo.
  28. Pinkhasov, Y. (1969). *Modern Uzbek literary language.* Tashkent: Publishing House of 'Science'.
  29. Voronin, S.V. (2004). *English onomatopoeias: Phonosemantic classification* (2nd ed.). Saint Petersburg: Helikon Plus.
  30. Ziyayev, A.I. (2009). Linguistic aspect of strengthening word meanings in English. *Diss. cand. philol. scien.* Samarkand: Samarkand State Institute of Foreign Languages.